O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

[1]Normurodov X.E, [2]Abduxalilov Sardorbek Abdullo o‘g‘li
[1]O‘zbekiston milliy universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]O‘zbekiston milliy universiteti, moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi 1 - bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19220999

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning iqtisodiy asoslari, hozirgi bosqichdagi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda moliya tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlar, jumladan, bank sektorini transformatsiya qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish va tashqi savdo aylanmasining o‘sish dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada milliy va xalqaro olimlarning moliyaviy barqarorlik va moliya bozoridagi shaffoflik borasidagi ilmiy qarashlari qiyosiy o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar. *Moliyaviy munosabatalar, bank tizimi transformatsiyasi, valyuta liberallashuvi, TXI, tashqi savdo aylanmasi, iqtisodiy asoslar, fiskal siyosat, raqamli moliya, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi*

Kirish. Moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning iqtisodiy negizi deganda, bu jamiyatda yalpi ichki mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat, korxonalar va aholi o‘rtasida **pul fondlarini** shakllantirish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi tushuniladi.[1] Qoidaga ko‘ra, moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari taqsimlash, fond hosil qilish va nazorat funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Bunda, taqsimlash funksiyasida jamiyatda yalpi daromadning turli sohalar o‘rtasida bo‘lib berishni ta’minlaydi, fond hosil qilish funksiyasida davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul jamg‘armalarini yaratadi hamda, nazorat funksiyasida esa mazkur tizim resurslarining qat’iy belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishini hamda ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish sharoitini yaratadi.

Global va texnologik o‘zgarishlar jadal kechayotgan hozirgi zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy munosabatlar iqtisodiy tizimning bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘lovchi va ularni ishlab chiqaradigan asos bo‘lib, u barcha sohalarda namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy tadqiqotda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning O‘zbekiston uchun juda muhim bo‘lgan iqtisodiy asoslar bo‘yicha dolzarb bir qator iqtisodiy asoslar ilgari surilgan. Jumladan, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida moliya sohasida amalga oshiralayotgan keng darajadagi iqtisodiy islohotlar, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” stretegiyasida YAIM hajmini ikki barobar oshirish hamda investitsiyalar oqimini jadallashtirish vazifalari moliyaviy munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.[1] Bu esa, belgilangan strategik maqsadlarga erishish, o‘z navbatida makroiqtsodiy barqarorlikning tayanch mexanizmi bo‘lgan moliyaviy resurslar sirkulyatsiyasini

[1] https://lex.uz/docs/-6600413

jadallashtirishni hamda ularni samarali tarnsformatsiya qilishni taqozo etadi. Hozirgi bosqichda bank tizimini transformatsiya qilish, xususan, davlat ulushiga ega bo‘lgan banklarni xususiylashtirish jarayonlarining jadallashuvi sohada chuqur institutsional o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.[3] Ushbu jarayon tijorat banklari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ma’muriy buyruqbozlik modelidan bozor-mijoz tamoyillariga o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu esa moliya bozorida munosabatlarning takomillashtirishning muhim makroiqtisodiy asosidir.

Ushbu ilmiy tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning iqtisodiy asoslarining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari turli mintaqalarda o‘ziga xos yo‘nalish va ta’limotlar bo‘yicha rivojlanib boryapti. Xususan, O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish ishlari faqat moliya – bank sohasida emas, balki boshqa sohalar bilan bir – biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta strategik yo‘nalishlarda kechmoqda.[4] Bularga bank tizimini transformatsiya qilish va xususiylashtirish, davlat boshqaruvining shaffoflashuvi, kapital bozori va ipo jarayonlari, moliyaviy ximzatlarni raqamlashtirish hamda soliq va bojxona munosabatlaridagi islohotlar kiradi. Ilmiy tadqiqot davomida zamonaviy moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini yuqorida keltirib o‘tilgan bir nechta strategik yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish jarayonida Jahon, mintaqaviy va mahalliy olimlarning iqtiboslarni o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki ularning iqtiboslari moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Jumladan, 2001 – yilgi Nobel mukofoti sovrindori, XVJ va Jahon bankining sobiq bosh iqtisodchisi Jozef Stiglistning fikricha, iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlar o‘z – o‘zidan tartibga kelmaydi, balki bu jarayonda moliya bozorida shaffoflik va hisobdorlik birinchi o‘rinda turishi kerak deb hisoblaydi[2]. Biz tadqiqot davomida, Stiglist nazariyasiga tayanib, O‘zbekistonda banklarni xususiylashtirishda aynan uning shaffoflik prinsipi muhim, hamda davlat moliya bozorini nazorat qilish rolidan ko‘ra, adolatli va ochiqlik qoidalarini yaratuvchisiga aylanish lozim degan fikrni olamiz. Bu esa O‘zbekistonda bank tizimi transformatsiyasi bilan hamohangdir. Shuningdek, Garvard va Chikago universitetlari professori, Jeyms Robinsonning fikricha, inklyuziv moliyaviy munosabatlar tizimi faqat boylar uchun emas, balki oddiy tadbirkorlar uchun bo‘lishi kerak deb hisoblaydi.[3] Robinsonning inkyuzivlik g‘oyasi O‘zbekistonda mikromoliya tashkilotlari va kichik biznesni kreditlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun fundamental asos bo‘la oladi.

Jumladan, MDH davlatlari miqyosida mashhur olimlardan biri, Rossiya Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi, Iqtisodiyot instituti ilmiy rahbari Ruslan Grinbergning aytishisha MDH davlatlarida moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda shok terapiyasi emas, balki davlat nazorati ostidagi bosqichma – bosqich islohotlar tarafdori.[4] Bu Grinbergning konsepsiyasi O‘zbekistondagi davlat va xususiy sherikchilik asosidagi moliyaviy aloqalarni rivojlantirish va tushuntirishda eng ma’qul yo‘llardan biridir. Shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyotni boshqarish bo‘yicha jahon darajasidagi ekspert hisoblanuvchi Abel Aganbegyaning nazariyasiga ko‘ra, u makroiqtisodiy o‘sish uchun investitsion forsayt kerakligini ta’kidlaydi, Ya’ni uning fikricha,

[2] https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2021/05/21/Economic-Reform-in-Uzbekistan-50181
[3] https://books.google.co.uz/books/about/Why_Nations_Fail.html?id=yIV_NMDDIvYC&redir_esc=y
[4] https://vopreco.ru/jour/article/view/583

byudjet pullarini faqat kundalik xarajatlarga emas, balki kelajakda muntazam daromad keltiruvchi fond bozori va aksiyalarga yo‘naltirish shart deb hisoblaydi.[5] Aganbegyanning taklifi bo‘yicha xulosa oladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda aholi qo‘lidagi bo‘sh mablag‘larni “Xalq IPOsi” orqali iqtisodiyotga jalb qilish moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy asosi bo‘ladi degan xulosaga kelamiz.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonda ham moliya maktabining nufuzli olim va professorlar tomonidan ham konsepsiyalar va nazariyalar ilgari surilgan. Jumladan, O‘zbekistonda bank – moliya tizimini ko‘plab ilmiy ishlar muallifi, professor Shodiyor Aliqulovning tadqiqotlar markazida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning raqamli transformatsiyasi turadi. Uning fikricha, an’anaviy moliyaviy munosabatalar makroiqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi. Faqatgina, blokcheyn va fintex texnologiyalari orqali shaffoflikka erishish mumkin.[6] Professor Aliqulov taklif etgan fintex modellari bugungi kunda O‘zbekiston bank tizimida masofaviy xizmatlar va raqamli identifikatsiya tizimida o‘z aksini topmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston moliya maktabining nufuzli professorlaridan biri To‘lqin Malikov asosan soliq siyosatining rag‘batlantiruvchi funksiyasiga urg‘u beradi. Uning nazariyasiga ko‘ra, O‘zbekistonda soliq tizimi shunchaki byudjetni to‘ldirish uchun emas, balki ishlab chiqrish quvvatlarini oshirish va ularni ko‘paytirish uchun fundamental vosita bo‘lishi kerak deb hisoblaydi.[7] Bu borada, Malikovning soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalari O‘zbekistonda QQS stavkasining tushirilishi, hamda o‘rta va kichik biznes uchun soliq imtiyozlari berilishining real va ilmiy isbotidir. Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlarning nazariya va konsepsiyalari O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish uchun iqtisodiy asosga ega bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-statistik va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. 2017–2025 yillardagi investitsiya va tashqi savdo ko‘rsatkichlari dinamikasi retrospektiv tarzda tahlil qilindi. Ma’lumotlar bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Markaziy bankining rasmiy statistik hisobotlari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning iqtisodiy asoslari bo‘yicha so‘ngi bir qator sohalarda liberallashuv ko‘rsatkichlari umuman olganda ijobiy tendensiyani namoyish etdi. Shuningdek, moliya tizimida eng salmoqli islohotlardan biri tashqi savdo va valyuta siyosatining liberellashtirish muhim ahamyatga ega. 2017-yilda so‘mning erkin konvertatsiya qilinishi va Respublikada o‘zgarib turuvchi valyuta kursining joriy etilishi milliy iqtisodiyotning xalqaro jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta’minladi.[11] O‘zbekistonda valyuta konvertatsiyasining ochilishi tashqaridan investitsiya kirituvchi investorlar uchun to‘plangan boylikni erkin olib chiqish kafolatini beradi. Quyidagi diagarammada erkin valyuta konvertatsiyasining ochilishi natijasida O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi ko‘rsatib o‘tilgan.


1-diagramma. So‘ngi 9 yillikdagi investitsiyalar hajmi[8]

[5] https://veorus.ru/publications/nauchnye-trudy-veo-rossii/

[6] https://iqtisodiyot.tsue.uz/


[7] https://api.ziyonet.uz/uploads/books/761935/5a5de384d6fb9.pdf

[8] O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining yillik statistik hisobotlari bo‘yicha muallif ishlanmasi. (2017-2024).



Demak statiskadan ko‘rsak bo‘ladiki, 2017 – yilda investitsiyalar asosan davlat kafolati asosida ya’ni kreditlar ko‘rinishida jalb qilingan bo‘lsa, 2024 – yil yakunlariga kelib 80 % dan ortiq inverstitsiyalar xususiy sektor hisobiga tegishli bo‘lyapti. Jumladan, 2017 – 2020 – yillarda investissiyalar neft – gaz sanoat sektoriga yo‘naltirligan bo‘lsa, ayni damda ular yashil energetika, qurilish materillari,elektronika qurilmalarini yaratish va to‘qimachilik sohalarida yetakchi o‘rinlarni egallayapti. Natijada so‘ngi 7 yil ichida TXI hajmining qariyb 5 barobarga yaqin o‘sishi, hamda valyuta konvertatsiyasining liberallashuvi investorlar uchun eng katta kafolat manbayi bo‘lganini statistik ma’lumotlardan ko‘rsak bo‘ladi. Jumladan, valyuta konvertatsiyasining ochilishi natijasida O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasi hajmi qariyb 2,6 barobarga oshdi.[9] Bu jarayon O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish yo‘lidagi institutsional tayyorgarligini ta’minlab, milliy valyutaning xalqaro bozordagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Quyidagi diagrammada tashqi savdo hajmining so‘ngi 7 yillik statiskasi taqdim etilgan.

1 – grafik. TSA hajmi so‘ngi 7 yillik statiskasi.[12]



[9] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/external-trade-2

Bu statiskadan shu narsa ayonki, 2017 – yilda valyuta kursining liberallashuvi natijasida, tashqi savdo aylanmasi deyarli 2,6 barobarga oshdi. Bu esa O‘zbekistonda moliya tizmining investorlar uchun ochiqligi hamda tashqi iqtisodiy taqiqlarning olib tashlangaligidan dalolat beradi. Shuningdek, iqtisodiyotning liberallashuvi sharoitida tashqi savdo balansidagi manfiy saldo doim ham salbiy indikator hisoblanmaydi. O‘zbekiston Respublikasi statistik agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, import tarkibining 70 % dan ortig‘ini mashinalar, asbob - -uskunalar va texnologik linyalar tashkil etmoqda [12]. Bu esa mamlakatda moliyaviy resurslar iste’molga emas, balki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilanishga yo‘naltirilayotganidan dalolat beradi. Yuqorida tahlil qilingan statistik ma’lumotlar O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarning takomillashtirishning iqtisodiy asoslari qay darajada ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning iqtisodiy asoslari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi fundamental omilga aylandi. Tadqiqot davomida bir qator ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, valyuta liberallashuvi TXI oqimining barqaror o‘sishiga va iqtisodiy ochiqlikka xizmat qildi. Ikkinchi xulosa shuki, moliya tizmidagi transformatsiya jarayonlari ma’muriy usullardan bozor tamoyillariga o‘tishni ta’minladi. Bu borada O‘zbekistonda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning iqtisodiy asoslari bo‘yicha tadqiqotda davomida bir qator takliflar ishlab chiqildi. Bular, Moliya bozorida shaffoflikni oshirish uchun J. Stiglist konsepsiyasiga muvofiq banklarni xususiylashtirishda ochiqlik prinsiplarini kuchaytirish, T. Malikov nazariyasi asosida soliq yukini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini rag‘batlantirishni davom ettirish va aholining bo‘sh mablag‘larini iqtisodiyotga jalb qilishda “Xalq IPO”si kabi mexanizmlaridan kengroq foydalanish kabi bir qator takliflar ishlab chiqildi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. – T.: “Sharq”, 2011. – 16-b. https://em.tiiame.uz/storage/web/source/1/elektron%20kutubxona/15-17%20Moliya.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-660413
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 12 – maydagi “2020 – 2025 – yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risida PF – 5992 Farmoni. https://bank.uz/uz/news/2020-2025-yillarga-mo-ljallangan-o-zbekiston-respublikasining-bank-tizimini-isloh-qilish-strategiyas2987
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413
5. Albert J., Morin L., et al. Economic Reform in Uzbekistan: Progress and Challenges IMF Working Paper – 2021. – № 21/144.– https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2021/05/21/Economic-Reform-in-Uzbekistan-50181
6. World Bank Group. Uzbekistan: Public Financial Management Reform Strategic Framework 2018-2025 World Bank Documents. – 2019. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/305241571412580795/uzbekistan-public-financial-management-reform-strategic-framework-2018-2025

7. Гринберг Р. С. Экономическая экспансия: роль государства и финансовой системы Вопросы экономики. – 2022. https://vopreco.ru/jour/article/view/583
8. Аганбегян А. Г. Финансы, бюджет и банки в новой России Научные труды ВЭО России. – 2019. https://veorus.ru/publications/nauchnye-trudy-veo-rossii/
9. Malikov T. S. Moliya: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 560 b. http://library.ziyonet.uz/uz/book/482)
10. Aliqulov S. A. O‘zbekistonda bank tizimini transformatsiya qilish yo‘llari va raqamli moliya // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2022. https://iqtisodiyot.tsue.uz/
11. International Monetary Fund (IMF). Uzbekistan: Staff Report for the 2021 Article IV Consultation https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2021/07/09/Uzbekistan-2021-Article-IV-Consultation-Press-Release-Staff-Report-and-Statement-by-the-461877.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov balansi va tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili (2024). https://cbu.uz/uz/statistics/externalsector/.